

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHDA INSON RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish kafedrasи assistenti

Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi

Umirzaqova Shaxnoza Akmalovna

Samarqand davlat universitetining Kattaqo 'rg'on filiali Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi

Abdukarimov Azizbek Sherali o'g'li

Annotasiya. Maqlada davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning shakllanishi, byudjet xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish uchun sarflanishi bayon kilingan bo'lib byudjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, daromadlar, xarajatlar, soliq to'lovlar, vazirlik va idoralar, talon-taroj.

Kirish. Har bir davlat o'zining funksiyasini bajarishi uchun davlat byudjetini tashkil etadi Davlatning asosiy funksiyalari mamlakat iktisodiyotni rivojlantirish aholini ijtimoy himoya qilish ichki va tashki dushmanlardan mamlakatni ximoya qilish (mudofaa va ichki ishlар taqkilotlari) hamda davlatni samarali boshkaruv tizimni tashkil etishdan iborat. Davlat byudjeti daromadlar va xarajatlar kismlaridan iborat bo'ladi Davlat byudjeti daromadi yuridik va jismoniy shahslargan olinadigan turli hil soliqlardan tashkil topadi Soliklardan majburiy to'lovlar bo'lib asosan manbai mamlakat yalpi daromadini taqsimlashdagi bir qismidir. Demak soliqlarning hajmi mamlakat iqtisodiy rivojlanishi darajasiga bog'liq.

Mavzuga adabiyotlar tahlili. Olimlarimiz iqtisodiy adabiyotlarda, ilmiy ishlарida davlat byudjetining mohiyatini nazariy jihatdan asoslab berishgan. Professorlar B.Xodiyev, Sh.Shodmanovlar "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligida "Davlat byudjeti - bu davlat daromadlari va xarajatlar hamda ularni moliyaviy qoplash manbalarining yilik rejasidir" deb ta'rif bergen (4, 586 b.). Professor A.O'lmasov "Iqtisodiyot" nomli ommabop qo'llanmasida "Davlat byudjeti – bu muayyan davlatning bir yilik daromadlar va xarajatlarning balansi yangi yigindisidir" deb ta'riflagan (5,152 b.). Professor M.Muxammedov rahbarligida tayyorlangan "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligida "Davlat byudjeti - davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir" deb ta'rif berilgan. Demak, iqtisodiy adabiyotlarda davlat byudjetining asosan nazariy tomoniga e'tibor qaratilgan. Davlat byudjeti daromadlarning shakllanishi muhim mavzudir. Lekin shakllangan byudjet daromadlarini maqsad va tasdiqlangan reja bo'yicha tug'ri foydalanish (xarajat qilish) undanda muhimdir. Davlat byudjeti daromadlar va

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

xarajatlar qismlaridan iborat bo'lib bir yilga tuziladi Lekin balans bo'lishi qiyin. Davlat byudjetning daromadlari xarajatlaridan ko'p bo'lsa profisit deb, aksincha daromadlaridan xarajatlar ko'p bo'lsa deficit deyiladi. Davlat byudjetning qanday bo'lishi (defisitli yoki profisitli) ko'p omillarga bog'liq. Bu omillarga iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi soliq turlari va ularning stavkalari islohotlarning bosqichi ijtimoiy vaziyat va shu kabilar.

Tadqiqot metologiyasi. Ishda makon va zamon, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, mantikiy fikrlash usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini o'rganganimizda qo'yidagilar aniqlandi. Davlat byudjet daromadlarining asosiy kismini soliqlar tashkil etadi. Soliqlar tushumida eng katta xissani bilvosita guruxiga kiritiladigan aholi iste'moli uchun juda zarur bo'limgan tovarlarga qo'yiladigan - aksiz solig'i xam ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'yiladigan qo'shilgan qiymat solig'i tashkil etadi. Shuni xam ta'kidlash kerakki-mamlakat iqtisodiyoti rivojlangan sari-korxonalarga (yuridik shaxslarga) belginlangan soliq stavkalari pasaytirilib soliq imtiyozlari qo'llanib tadbirkorlikni rivojnativish uchun imkoniyatlар yaratilmokda

O'zbekistonda yuridik shaxslargan qo'shilgan qimmat aksiz daromad solig'i yer va mulk soliqlari olinadi jismoniy shahslardan daromad solig'i yer va mulk soliqlari olinadi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlangan sari soliq stavkasi 2000 yilda 31,0 foiz bo'lgan bo'lsa, 2022 yilga 15,0 foiz belgilangan qo'shilgan qiymat solig'i xam ko'p vaqtlar 20,0 foiz edi, xozir esa 15,0 foizga tushirildi. Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasi daromadga qarab differensasiya qilingan bo'lib eng kam ish xaqining 10 baravari ko'pi 40,0 foiz soliq ushlanar edi. Xozirgi paytda daromad solig'i daromadidan qat'iy nazar -12,0 foiz belgilagan.

2020 yil 20 dekabrda 2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Qonunda 2022 yil

"Davlat byudjeti daromadlari va xarajalari asosiy parametrlari xamda 2023-2024 yillar uchun byudjet prognozlarini belgilangan Davlat byudjeti" sof daromadlari 1995 mrln sum rejalashtirilgan bo'lib doimgidek asosiy tushumini (80,0 foizni) bevosita bilvosita soliq guruhlari va resurs to'lovleri tashkil etadi. Davlat byudjeti xarajatlari 215,0 trln. so'm belgilangan bo'lib, byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotning 30 foizi miqdorida belgilangan. Davlat byudjeti xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan. Bular xalq ta'limi sog'liqni saqlash aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash kommunal xizmatni yaxshilash (toza ichimlik suvi, tabiiy gaz kabi) kam ta'minlangan boquvchisini yo'kotgan nogironligi bolalarga nafakalar berish kabilarni o'z ichiga oladi. 2022 yil Davlat byudjeti xarajatlari 58 ta vazirlik va idoralar bo'yicha taqsimlangan bo'lib, ta'lim sohasining barcha xarajatlari 469 trln. so'm belgilangan shundan maktabgacha ta'lim vazirligiga 65 trln. so'm. Xalq ta'limi vazirligiga -258 trln. so'm. Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligiga – 42 trln. so'm ajratilgan. Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi - 62 foiz. Ayniksa bu masala kiçllok joylarga Kashkadaryo va Surxandaryo viloyatlarida muammo shuning uchun joylarga 1600ta bolalar bog'chasi qo'rish va ularni jixozlash rejalashtirilmokda Bu borada davlat-xususiy sherikchilik asosida tashkil etiladigan maktabgacha ta'lim muassasalariga e'tibor berilmokda Joylarda o'rta maktablar yetishmasligi ko'pgina maktablar ikki smenada o'quv ishlarini ta'mirlanishi mo'ljallanmokda. Bundan tashqari byudjet mablag'lari

**2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)**<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

maktablarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash hamda o'qituvchilarning ish xakini ko'paytirishga sarflanadi. Respublika oliv va o'rta maxsus ta'lif vazirligiga qarashli ko'pgina OTMlarga zamonaviy texnika bilan jihozlangan laboratoriylar talabalar turar joylari yetishmaydi. Talabalarning kuo'chiligi ijarada, xususiy uy-joylarga turishadi. Bunday joylarda talabalarning o'qishi, bilim olish uchun sharoitlar mavjud emas. Shuning uchun bu vazirlikda rejalshtirilgan byudjet mablag'lari asosan zamonaviy laboratoriylari tashkil etish talabalar uchun turar joylar kirish va ularni jihozlashga sarflanadi. Aholining sog'ligini saqlash buyicha ja'mi 228 trln. so'm sarflash mo'ljalanmokda. Bu mablag'lar tez tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash, buyrak va jigar transplantasiyasi xamda boshqa jiddiy kassaliklar bo'yicha yuqori texnologik laborator uskunalar olish dori-vositalari bilan ta'minlash, karonavirus kasallikdan himoya qilish xamda tibbiyot xadimlarining ish xakini bosqichma-bosqich ko'paytirishga sarflanadi. Mamlakatimizda temir daftar, ayolalar daftari, yoshlar daftari yuritilib, kam ta'minlangan nogironligi bor oilalar aniqlanib, ularning oila a'zolarni bepul kasbga o'qitish tashkil etilib, ishga joylashtirilmokda, moddiy yordam ko'rsatilmokda. Respublika Prizidenti Sh.Mirziyoyev

Qaroriga binoan 2021 yil dekabr oyida 2022 yil yangi yil arafasida kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarga 8000 ming so'mdan bir martalik yordam puli tarqatildi. 2022 yil Davlat byudjeti xarajatlarida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari sanoat va qishloq xo'jalagini rivojlantirish uchun xam mablag'lar ajratilgan. Sanoatda tog'-kon, yengil va oziq-ovqat, tarmok sanoatlarini yanada rivojlantirish ayniqsa qayta ishlash korxonalarni tashkil etib, qo'shilgan qiymatni ko'paytirish belgilangan Qishlok va Suv Vazirligiga Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar yerlarning meliorativ holatini yaxshilash qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildor navlarini yaratishga suv taqchilligi sabab tomchilatib sug'orishni keng joriy etishga sarflanadi. Qonun bo'yicha tumanlarda (shaxarlarda) tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiylar xarajatlarining 5 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi belgilangan. 2022 yil Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari reja mikdorlari belgilandi. Qonun bilan tasdiqlandi. Endi asosiy vazifa byudjet mablag'lar tushumini va sarflanishini nazorat qilish va to'g'ri boshqarishdan iborat Davlat byudjetiga tushumlarni (daromadni) ko'paytirish uchun iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirib, yangi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yo'lga qo'yish, yashirin iqtisodiyotni legallashtirish zarur. Bu borada tadbirkorlarga yeratilayotgan qulayliklar turli xil imtiyozlar berilmokda. Davlat byudjeti mablag'larini talon taroj qilmasdan maksad bo'yicha samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ammo OAVda davlat byudjeti mablag'larini talon taroj bo'layotganligi to'g'risida ma'lumotlar xam berib qoladi, respublika Moliya vazirligi huzuridagi davlat moliya nazorati 2021 yil 9 oyi davomida byudjet mablag'larining 7288 mlrd so'mi noto'g'ri sarflanganini shundan 837 mlrd. so'mi pul va moddiy boyliklarni o'zlashtirilganligi aniqlangan. 2021 yilda O'zbekistonidagi qo'riliш, ta'mirlash ishlarida Davlat byudjeti mablag'larini qo'shib yozishlar orkali 920 mrld. so'mi o'zlashtirib yuborilgan. O'zbekiston Respublikasi bosh prokurori N.Yuldashev 2021 yil iyun oyida Jizzax viloyati hokimi o'rinosbasari 2018-2020 yillarda kariyib 200 mlrd. so'mlik byudjet mablag'larini talon-taroj qilganligini ma'lum qildi. Davlat byudjeti mablag'larining o'zlashtirilishi talon-taroj qilinishi kam summa emas, bir oyda bo'limgan, bular aniqlanganligi bu summalarga qanchalik bolalar bog'chasi maktablar qo'rsa bo'lar edi. Demak tegishli vazirliklar Moliya vazirligi, nazorat bo'limlari yaxshi ishlataydi, qisob- kitob ishlari qoniqarsiz, jamoatchilik nazorati yaxshi yo'lga qo'yilmagan byudjet mablag'larini sarflanishi

2023: International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

bo'yicha shaffoflik yuq deyish mumkin, xulosa va takliflar tegishli vazirliklar, moliya vazirligi, byudjet mablag'lari sarflanishini maqsadga muvofiqligini samarali ishlatiyotganligini, operativ nazoratini ko'chaytirishi lozim. Byudjet mablag'larini sarflashda hisob-kitob ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish xarajatlarning loyixa -smeta qiymatidan oshib ketmasligining ustidan nazorat kilish kerak. Byudjet mablag'larining sarflashining qaffofligini jamoat nazoratini o'rnatishni ta'minlash lozim, hullas davlat byudjeti mablag'lari sarflanishi ustidan shaffoflik ta'minlana operativ nazorat va buxgalteriya xisobi yaxshi yo'lga qo'yilsa mablag'larning noqonuniy o'zlashtirilishi talon-taroj qilinishi kamayadi. Natijada aholining turmush darajasi yanada yaxshilanadi, iktisodiyot tarmoqlarning biror sohasi rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati:

O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2022 yil uchun "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti" to'g'risida URK-742, 2021 yil 30 dekabr.

1. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz mustaqilligi - biz uchun ko'ch- g'ayrat va ilxom manbai tarakkiyot va faravonlik asosi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustakilligining 30 yilik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. 2021 yil 31 avgust.
2. Muxammedov M. va boshkalar. Iktisodiyot nazariyasi. T.Fan va texnologiya nashriyoti, 2018, 272 bet.
3. Xodiayev B., Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. T. Barkamol fayz media nashriyoti, 2017, 784 bet.
4. O'lmasov A. Iqtisodiyot.T. Iqtisod va moliya. 2017, 224 bet.
5. Samarkandskiy vestnik. gazet №87, 2021 yil 3 noyabr.

<https://kun.uz/89849434> 8 <https://kun.uz/77658407>